

# Bolajonlar uchun tuhfa

[ Ўзбекча – Uzbek – الأوزبكي ]

*Salim ibn Sa'd at-Tovil*

**Tarjimon:** *Mahmud Yusuf Kosoniy*

**Muharrir:** *Abu Abdulloh Shoshiy*

2015 - 1436

IslamHouse.com

# أسئلة مفيدة للأطفال وأجوبتها

« باللغة الأوزبكية »

سالم بن سعد الطويل

مترجم: محمود يوسف الكساني

مراجع: أبو عبد الله الشاشي

2015 - 1436

IslamHouse.com

## **Bismillahir Rohmanir Rohim**

### **1. Savol: Robbing kim?**

**Javob: Robbim Alloh taolo.**

### **2. Savol: Alloh taolo qayerda?**

**Javob: Alloh taolo osmondadir.**

### **3. Savol: Alloh taoloning bandalar ustidagi haqqi nima?**

**Javob: Alloh taoloning yolg'iz O'zigagina ibodat qilishlari va Unga hech bir narsani sherik qilmasliklaridir.**

### **4. Savol: Ushbu hadisning davomi nima, "Kim Allohni Robbim deb rozi bo'ldim... desa"?**

**Javob: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

**مَنْ قَالَ : رَضِيْتُ بِاللَّهِ رَبًّا ، وَبِالْإِسْلَامِ دِينًا ،  
وَبِمُحَمَّدٍ رَسُولًا ، وَجَبَتْ لَهُ الْجَنَّةُ**

**“Kim Allohni Robbim, Islomni dinim va Muhammad sollallohu alayhi va sallamni payg'ambarim deb rozi bo'ldim desa, unga jannat vojib bo'lur” (Abu Dovud, 1529).**

**5. Savol: Alloh taolo bizlarni nima uchun yaratdi?**

**Javob: Yolg'iz O'zining ibodati uchun yaratdi. Alloh taolo aytadi:**

**وَمَا خَلَقْتُ الْجِنَّ وَالْإِنْسَ إِلَّا لِيَعْبُدُونِ ﴿٥٦﴾**

**“Men jin va insonni faqat o’zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim” (Az-Zoriyot surasi, 56-oyat).**

**6. Savol: Bizning ustimizdagi eng buyuk vazifa nima?**

**Javob: Tavhid, ya`ni Alloh taolo haqli bo`lgan har bir narsaga Uning yakka O`zi haqli deb bilish.**

**7. Savol: Tavhid turlari qaysilar?**

**Javob: Rububiyat tavnidi, Uluhiyat tavnidi va Asmoi sifat tavnidi.**

**8. Savol: Tavnid kalimasi va uning ma`nosi nima?**

**Javob: Tavnid kalimasi “La ilaha illalloh”dir, uning ma`nosi “Allohdan boshqa haq ma`bud yo`q” demakdir.**

**9. Savol: “Har bir “La ilaha illalloh, Muhammadun Rosululloh” deb guvohlik bersa...”, deb boshlsngan hadisning davomi nima?**

**Javob: Payg’ambar sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

مَا مِنْ أَحَدٍ يَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَأَنَّ مُحَمَّدًا  
رَسُولُ اللَّهِ صِدْقًا مِنْ قَلْبِهِ إِلَّا حَرَّمَهُ اللَّهُ عَلَى النَّارِ

**“Har bir “La ilaha illalloh, Muhammadun Rasululloh” deb chin qalbidan tasdiqlab guvohlik bergan kishini Alloh taolo do’zax o’tiga harom qilur” (Buxoriy (128) va Muslim (32) rivoyati).**

**10. Savol: Eng katta gunoh nima?**

**Javob: Alloh taologaga shirk keltirishdir.**

## 11. Savol: Shirk nima?

**Javob:** Alloh taolodan boshqaga ibodat qilmoqlik yoki Alloh taolo bilan birga boshqa narsaga ham ibodat qilishdir.

12. Savol: “Kim Alloh taolodan boshqaga qasam ichsa...” hadisining davomi nima?

**Javob:** Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:

مَنْ حَلَفَ بِغَيْرِ اللَّهِ فَقَدْ كَفَرَ أَوْ أَشْرَكَ

“Kim Alloh taolodan boshqaga qasam ichsa, kofir yoki mushrik bo’libdi” (Termiziy rivoyati, 1535).

**13. Savol: Alloh taolodan boshqa biron kimsa g'aybni biladimi?**

**Javob: Osmonlaru yerda Alloh taolodan boshqa hech kim g'aybni bilmaydi.**

**14. Savol: Amallar qachon Alloh taolo huzurida maqbul bo'ladi?**

**Javob: Alloh taolo uchun xolis va Payg'ambarimiz sollalohu alayhi va sallamning sunnatlariga muvofiq bo'lsagina qabul bo'ladi.**



## 15. Savol: “Kafirun” surasini o’qing!

**Javob:**

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

قُلْ يَتَأْتِيهَا الْكُفْرُونَ ❶ لَا أَعْبُدُ مَا تَعْبُدُونَ ❷ وَلَا أَنْتُمْ  
عَبِيدُونَ مَا أَعْبُدُ ❸ وَلَا أَنَا عَابِدٌ مَّا عَبَدْتُمْ ❹ وَلَا أَنْتُمْ عَابِدُونَ  
مَا أَعْبُدُ ❺ لَكُمْ دِينُكُمْ وَلِيَ دِينِ ❻

## 16. Savol: Payg’ambaring kim?

**Javob:** “Muhammad sollallohu alayhi va  
sallam”

17. Savol: Muhammad Allohning Rasuli  
deganining ma`nosi nima?

**Javob:** Muhammad sollallohu alayhi va  
sallam ogohlantiruvchi va hushxabar beruvchi

**elchi, ya`ni Alloh taoloning payg`ambaridir, deganidir.**

**18. Savol: Payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning ismlari, otalari va bobolarning ismi nima?**

**Javob: Payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning ismlari Muhammad, otalarining ismi Abdulloh va bobolarining ismi Abdulmuttalibdir.**

**19. Savol: Insonlardan ko`proq kimni yaxshi ko`rish lozimdir?**

**Javob: Payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni.**

**20. Savol: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam qachon va qaysi shaharda tug'ilganlar?**

**Javob: Mashhur Fil hodisasi bo'lgan yil – milodiy 571 yili, Makka shahrida tug'ilganlar.**

**21. Savol: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam payg'ambar bo'lganlarida necha yoshda edilar?**

**Javob: Qirq yoshda.**

**22. Savol: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga payg'ambarlik kelganidan so'ng Makkada necha yil yashadilar?**

**Javob: O'n uch yil.**

**23. Savol: So'ngra qayerga hijrat qildilar?**

**Javob: Madina shahriga.**

**24. Savol: Hijratdan so'ng Madinada necha yil yashadilar?**

**Javob: O'n yil.**

**25. Savol: Kimlarni "Mo'minlarning onalari" deb aytiladi?**

**Javob: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning ayollarini mo'minlarning onalari deb aytiladi.**

**26. Savol: Payg'ambarimiz sollalohu alayhi va sallam qachon, qayerda va necha yoshda vafot etdilar?**

**Javob: Payg'ambarimiz sollalohu alayhi va sallam hijratdan o'n yil so'ngra, Madina shahrida, oltmish uch yoshlarida vafot etdilar.**

**27. Savol: "Kim menga bir marta salavot aytsa...", hadisining davomi nima?**

**Javob: Payg'ambarimiz sollalohu alayhi va sallam dedilar:**

**مَنْ صَلَّى عَلَيَّ صَلَاةً وَاحِدَةً صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ عَشْرًا**

**"Kim menga bir marta salavot aytsa, Alloh taolo unga o'n marta salavot aytadi"**  
**(Muslim rivoyati, 407).**

**28. Savol: Dining nima?**

**Javob: Dinim Islomdir.**

**29. Savol: Islomning ma`nosi nima?**

**Javob: Alloh taologa tavhid va toat-ibodat bilan taslim bo`lish va bo`ysunishdir.**

**30. Savol: Islomning ruknlari nechta?**

**Javob: Beshtadir.**

**31. Savol: “Islom besh narsa ustiga quriladi...” hadisining davomi nima?**

**Javob: Payg`ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

بُنِيَ الْإِسْلَامُ عَلَى خَمْسٍ شَهَادَةِ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ  
وَأَنَّ مُحَمَّدًا رَسُولُ اللَّهِ وَإِقَامِ الصَّلَاةِ وَإِيتَاءِ الزَّكَاةِ  
وَالْحَجِّ وَصَوْمِ رَمَضَانَ

**“Islom besh narsa ustiga qurildi: Darhaqiqat Allohdan boshqa haq iloh yo’q va Muhammad sollallohu alayhi va sallam Allohning payg’ambaridirlar deb guvohlik berish, Namozni qoim qilish, Zakot berish, yo’lga qodir bo’lgan kishi bir marta Haj qilish, Ramazon oyida ro’za tutish” (Buxoriy (8) va Muslim (16) rivoyati).**

### **32. Savol: Dinning ustuni nima?**

**Javob: Dinning ustuni namozdir.**

**33. Savol: “Biz bilan kofirlar o’rtasidagi farq namozdir,...”, hadisining davomini ayting!**

**Javob: Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

الْعَهْدُ الَّذِي بَيْنَنَا وَبَيْنَهُمُ الصَّلَاةُ فَمَنْ تَرَكَهَا فَقَدْ

كَفَرَ

“Biz bilan kofirlar o’rtasidagi farq namozdir, kim namozni tark qilsa kofir bo’ladi” (Termiziy (262) va Ibn Moja (1079) rivoyati).

#### 34. Savol: Namozning ta’rifini aytib ber!

Javob: Namoz, “Allohu akbar” deb boshlab, “Assalamu alaykum va rohmatulloh” deb tugatiladigan, maxsus so’z va harakatlar bilan ibodat qilmoqlikdir.

#### 35. Savol: Bir kecha kunduzda necha vaqt namoz farz va rakaatlari qancha?

Javob: Besh vaqt namoz farzdir: bomdod namozi (ikki rakaat), peshin namozi (to’rt rakaat), asr namozi (to’rt rakaat), shom



**namozi (uch rakaat); xufton namozi (to'rt rakaat).**

**36. Savol: Namoz shartlariga nimalar kiradi?**

**Javob:**

- 1) Islom;**
- 2) Aql;**
- 3) Balog'at;**
- 4) Vaqt;**
- 5) Najosatni ketkazish;**
- 6) Tahorat;**
- 7) Satri avrat;**
- 8) Qiblaga yuzlanmoq;**
- 9) Niyat.**

**37. Savol: Tahoratning ruknlari nimalar?**

**Javob:**

- 1) Yuzni yuvish (og'izni chayqash va burunga suv olish bilan birga);
- 2) Ikki qo'lni tirsagi bilan yuvish;
- 3) Boshga mahs tortish (quloq bilan);
- 4) Oyoqni to'piqlari bilan yuvish;
- 5) Tartibni saqlash;
- 6) Paydar-pay yuvish.

**38. Savol: Tahoratni buzadigan narsalar nimalar?**

**Javob:**

- 1) Orqa yoki old avratlardan najosat, siydik va yel kabi narsalarning chiqishi;
- 2) Uxlash;

3) Tuya go'shtini yeyish;

4) G'uslni vojib qiluvchi narsalar.

**39. Savol: “Kim tahorat qilsa...” hadisining davomi nima?**

**Javob: Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

مَا مِنْكُمْ مِنْ أَحَدٍ يَتَوَضَّأُ فَيُبَلِّغُ الْوُضُوءَ ثُمَّ يَقُولُ  
أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَأَنَّ مُحَمَّدًا عَبْدُ اللَّهِ وَرَسُولُهُ إِلَّا  
فُتِحَتْ لَهُ أَبْوَابُ الْجَنَّةِ الثَّمَانِيَةِ يَدْخُلُ مِنْ أَيِّهَا شَاءَ

“Kim tahorat qilsa va: “Guvohlik beraman-ki, Allohdan boshqa haq ma`bud yo'qdir va Uning hech qanday sherigi yo'q yakka-yagonadir va guvohlik beramanki, Muhammad sollallohu alayhi va sallam Allohning bandasi va payg'ambaridir” desa, unga jannatning sakkiz eshigi ochiladi va

**qaysi biridan xohlasa kiradi” (Muslim rivoyati (234)).**

**40. Savol: Qaysi surani namozda o’qishlik vojibdir?**

**Javob: Fotiha surasini.**

**41. Savol: Ruku’ga borganda nima deyiladi?**

**Javob: Subhana Robbiyal Azim.**

**42. Savol: Sajdada nima deyiladi?**

**Javob: Subhana Robbiyal A’lo.**

**43. Savol: Ikki sajda orasida nima deyiladi?**

**Javob: Robbig’fir liy, Robbig’fir liy.**

**44. Savol: Attahiyatni o’qing!**

**Javob:** Attahiyyatu lillahi vas solavatu vat toyyibat, assalamu alayka ayyuhan nabiiyu va rohmatullohi va barokatuhu, assalamu alayna va ala ibadillahi solihin, ashhadu alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuluh.

#### **45. Savol: Salavot Ibrohimiyani o'qing!**

**Javob:**

اَللّٰهُمَّ صَلِّ عَلٰى مُحَمَّدٍ وَعَلٰى آلِ مُحَمَّدٍ، كَمَا صَلَّيْتَ  
عَلٰى اِبْرَاهِيْمَ وَعَلٰى آلِ اِبْرَاهِيْمَ، اِنَّكَ حَمِيْدٌ مَّجِيْدٌ وَبَارِكْ  
عَلٰى مُحَمَّدٍ وَعَلٰى آلِ مُحَمَّدٍ، كَمَا بَارَكْتَ عَلٰى اِبْرَاهِيْمَ  
وَعَلٰى آلِ اِبْرَاهِيْمَ،  
اِنَّكَ حَمِيْدٌ مَّجِيْدٌ

**46. Savol: Namozxon salom berishidan avval Alloh taolodan panoh so'rashi lozim bo'lgan to'rt narsa nima?**

**Javob:** Ey Allohim, men sendan jahannam azobidan, qabr azobidan, hayot va o'lim fitnasidan va masihi Dajjol fitnasidan panoh so'rayman.

**47. Savol:** “Kim har kuni o'n ikki rakaat sunnat namozini o'qisa...” hadisining davomi nima?

**Javob:** Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

مَنْ صَلَّى فِي الْيَوْمِ وَاللَّيْلَةِ اثْنَتَيْ عَشْرَةَ رَكْعَةً  
تَطَوُّعاً بَنَى اللَّهُ لَهُ بَيْتاً فِي الْجَنَّةِ

“Kim har kuni o'n ikki rakaat sunnat namozini o'qisa, Alloh taolo unga jannatda bir uy quradi” (Muslim rivoyati (728)).

**48. Savol:** Bu o'n ikki rakaat sunnatlarni aytib bering.

**Javob:** Bomdod namozining farzidan avvalgi ikki rakaat; peshin namozining farzidan avvalgi to'rt rakaat va farzidan keyingi ikki rakaat; shom namozining farzidan keyingi ikki rakaat; xufton namozining farzidan ke-yingi ikki rakaatlardir.

#### **49. Savol: Zakot nima?**

**Javob:** Xos mol va boylikda, xos kishilarga maxsus bir vaqtda farz bo'lgan haqdir.

#### **50. Savol: Ro'za nima?**

**Javob:** Tong vaqtidan to kun botgunga qadar yemoq, ichmoq va jimodan tiyilib Alloh taologa ibodat qilishdir.

**51. Savol: “Kim ramazon oyida iymon va ixlos bilan ro’za tutsa...” hadisining davomi nima?**

**Javob: Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

مَنْ صَامَ رَمَضَانَ إِيمَانًا وَاحْتِسَابًا غُفِرَ لَهُ مَا تَقَدَّمَ  
مِنْ ذَنْبِهِ

“Kim ramazon oyida iymon va ixlos bilan ro’za tutsa, uning o’tgan gunohlari kechiriladi” (Buxoriy (38) va Muslim (760) rivoyati).

**52. Savol: Haj nima?**

**Javob: Xos vaqtda Baytullohga borib, xos bir amallarni ado etib, Alloh taologa ibodat qilishdir.**



**53. Savol: “Kim Alloh uchun haj qilsa...”  
hadisining davomi nima?**

**Javob: Payg’ambarimiz sollallohu alayhi  
va sallam dedilar:**

مَنْ حَجَّ لِلَّهِ فَلَمْ يَرْفُثْ وَلَمْ يَفْسُقْ، رَجَعَ كَيَوْمِ وَلَدَتْهُ  
أُمُّهُ

“Kim Alloh uchun haj qilsa, jimo` va  
gunoh ishlarni qilmasa, onasidan tug’ilgan  
kunidagi kabi gunohlardan pok bo’ladi”  
(Buxoriy rivoyati (1521)).

**54. Savol: Iymonning ruknlari nima?**

**Javob: Allohga, Allohning  
farishtalariga, Allohning kitoblariga,  
Allohning payg’ambarlariga, qiyomat kuniga,  
qadarning yaxshi va yomoni Allohdan  
ekanligiga imon keltirish.**

**55. Savol: Farishtalardan uch farishtaning nomini aytib bering!**

**Javob: Jibriyl, Mikoil va Isrofil.**

**56. Savol: Ilohiy kitoblarni va kimlarga nozil bo'lganligini aytib bering!**

**Javob: “Ibrohim va Muso sahifalari”, Ibrohim va Muso alayhissalomlarga;**

**“Tavrot”, Muso alayhissalomga,**

**“Zabur”, Dovud alayhissalomga,**

**“Injil”, Iso alayhissalomga,**

**“Qur`on”, Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nozil bo'lgan.**

**57. Savol: Payg'ambarlardan “ulul azm” (sabotli va qiyinchiliklarga sabrli)lari kimlar?**

Javob: Nuh alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Muso alayhissalom, Iyso alayhissalom va Muhammad sollallohu alayhi va sallam.

58. Savol: Musulmon kishi uyqudan avval o'qiydigan "Baqara" surasining so'nggi oyatlarini o'qing!

Javob:

ءَامَنَ الرَّسُولُ بِمَا أُنزِلَ إِلَيْهِ مِنْ رَبِّهِ وَالْمُؤْمِنُونَ كُلٌّ ءَامَنَ  
بِاللَّهِ وَمَلَائِكَتِهِ وَكُتُبِهِ وَرُسُلِهِ لَا نُفَرِّقُ بَيْنَ أَحَدٍ مِّن رُّسُلِهِ  
وَقَالُوا سَمِعْنَا وَأَطَعْنَا غُفْرَانَكَ رَبَّنَا وَإِلَيْكَ الْمَصِيرُ ﴿١٥٥﴾ لَا يُكَلِّفُ  
اللَّهُ نَفْسًا إِلَّا وُسْعَهَا لَهَا مَا كَسَبَتْ وَعَلَيْهَا مَا اكْتَسَبَتْ رَبَّنَا لَا  
تُؤَاخِذْنَا إِنْ نَسِينَا أَوْ أَخْطَأْنَا رَبَّنَا وَلَا تَحْمِلْ عَلَيْنَا إِصْرًا كَمَا  
حَمَلْتَهُ عَلَى الَّذِينَ مِن قَبْلِنَا رَبَّنَا وَلَا تُحَمِّلْنَا مَا لَا طَاقَةَ لَنَا بِهِ

وَأَعْفُ عَنَّا وَأَعْفِرْ لَنَا وَأَرْحَمْنَا أَنْتَ مَوْلَانَا فَأَنْصُرْنَا عَلَى الْقَوْمِ  
الْكَافِرِينَ ﴿٢٨٦﴾

**59. Savol: Qiyomat qachon?**

**Javob: Qiyomatning qachon bo'lishini  
Allohdan boshqa hech kim bilmaydi.**

**60. Savol: Darul Karoma nima?**

**Javob: Jannatdir.**

**61. Savol: Jannat eshiklari nechta?**

**Javob: Jannat eshiklari sakkiztadir.**

**62. Savol: Mo'minlar Parvardigorlarini  
qachon ko'radilar?**

**Javob: Jannatga kirganlarida ko'radilar.**

**63. Savol: Jannatga kirishga eng ko'p sabab bo'ladigan amal nima?**

**Javob: Allohdan taqvo qilish va go'zal xulq.**

**64. Savol: Azob va xorlik diyori qaysi joydir?**

**Javob: Do'zaxdir (Alloh u yerdan panoH bersin).**

**65. Savol: Do'zaxning eshiklari nechta?**

**Javob: yettita.**

**66. Savol: Ehsan nima?**

**Javob: Robbingni ko'rib turgandek ibodat qilishing, agarda sen Uni ko'rmasang, U seni albatta ko'rib turadi.**

**67. Savol: Odamlardan yaxshilik qilishlikka va ezgulikka haqlirog'i kim?**

**Javob: Ota-ona.**

**68. Savol: Agar ota-onang haqlariga duo qilmoqchi bo'lsang nima deb duo qilasan?**

**Javob: Ey Robbim mening gunohimni va ota-onamning gunohlarini kechir va ular meni yoshligimda tarbiya qilganlari kabi ularga rahm qil.**

**69. Savol: Alloh taologa suyumli bo'lgan amal qaysi?**

**Javob: Namozni vaqtida ado etish, so'ng ota-onaga yaxshilik qilish, so'ng Alloh taolo yo'lida jihod qilish.**

**70. Savol: Alloh taoloning huzurida odamlarning hurmatlirog'i kim?**

**Javob: Taqvodorrog'idir. Odamlarning eng taqvodori esa Muhammad sollallohu alayhi va sallamdirlar.**

**71. Savol: Eng ulug' kitob qaysi?**

**Javob: Qur`oni Karimdir.**

**72. Savol: Qur`oni Karim necha juz (pora)dan iboratdir?**

**Javob: O'ttiz juzdan iborat.**

**73. Savol: Qur`oni Karimni o'qishdan avval nima qilasiz?**

**Javob: Tahorat qilaman va "Auvzu billah"ni aytaman (ya'ni Alloh taologa mal'un shaytondan panoj berishini so'rab iltijo qilaman).**



## 74. Savol: Falaq va Nos suralarini o'qing!

Javob:

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

قُلْ أَعُوذُ بِرَبِّ الْفَلَقِ ❶ مِنْ شَرِّ مَا خَلَقَ ❷ وَمِنْ شَرِّ غَاسِقٍ إِذَا وَقَبَ ❸ وَمِنْ شَرِّ النَّفَّاثَاتِ فِي الْعُقَدِ ❹ وَمِنْ شَرِّ حَاسِدٍ إِذَا حَسَدَ ❺

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

قُلْ أَعُوذُ بِرَبِّ النَّاسِ ❶ مَلِكِ النَّاسِ ❷ إِلَهِ النَّاسِ ❸ مِنْ شَرِّ الْوَسْوَاسِ الْخَنَّاسِ ❹ الَّذِي يُوَسْوِسُ فِي صُدُورِ النَّاسِ ❺ مِنَ الْجِنَّةِ وَالنَّاسِ ❻

75. Savol: Qur`oni Karimdagi eng ulug` oyat qaysi va uni o`qing!

Javob: Eng ulug` oyatal kursidir.

اللَّهُ لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ الْحَيُّ الْقَيُّومُ لَا تَأْخُذُهُ سِنَّةٌ وَلَا نَوْمٌ لَهُ مَا فِي السَّمَوَاتِ وَمَا فِي الْأَرْضِ مَنْ ذَا الَّذِي يَشْفَعُ عِنْدَهُ إِلَّا بِإِذْنِهِ يَعْلَمُ مَا بَيْنَ أَيْدِيهِمْ وَمَا خَلْفَهُمْ وَلَا يُحِيطُونَ بِشَيْءٍ مِّنْ عِلْمِهِ إِلَّا بِمَا شَاءَ وَسِعَ كُرْسِيُّهُ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضَ وَلَا يَئُودُهُ حِفْظُهُمَا وَهُوَ الْعَلِيُّ الْعَظِيمُ ﴿٢٥٥﴾

76. Savol: “Kim har namozdan so`ng oyatal kursini o`qisa...” hadisining davomi nima?

Javob: Payg`ambar sollalohu alayhi va sallam dedilar:

مَنْ قَرَأَ آيَةَ الْكُرْسِيِّ فِي دُبُرِ كُلِّ صَلَاةٍ مَكْتُوبَةٍ لَمْ يَمْنَعْهُ مِنْ دُخُولِ الْجَنَّةِ إِلَّا أَنْ يَمُوتَ

“Kim har namozdan so’ng oyatal kursini o’qisa, uni jannatga kirishdan faqat o’lim to’sib turadi” (Nasaiy rivoyati (6/9928)).

77. Savol: Qur’oni Karimdagi eng fazilatli sura qaysi va uni o’qing!

Javob: Fotiha surasi.

### سُورَةُ الْفَاتِحَةِ

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ ① الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ ②  
الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ ③ مَلِكِ يَوْمِ الدِّينِ ④ إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ  
⑤ أَهْدِنَا الصِّرَاطَ الْمُسْتَقِيمَ ⑥ صِرَاطَ الَّذِينَ أَنْعَمْتَ عَلَيْهِمْ غَيْرِ  
الْمَغْضُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الضَّالِّينَ ⑦

78. Savol: Qur’oni Karimdagi eng uzun sura qaysi?

Javob: Baqara surasi.

79. Savol: Qur`oni Karimdagi eng qisqa sura qaysi?

Javob: Kavsar surasi.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

إِنَّا أَعْطَيْنَكَ الْكَوْثَرَ ❶ فَصَلِّ لِرَبِّكَ وَأَنْحَرْ ❷ إِنَّ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ ❸

80. Savol: Qur`oni Karimning uchdan biriga teng bo'lgan sura qaysi?

Javob: Ixlos surasi.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ ❶ اللَّهُ الصَّمَدُ ❷ لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ ❸ وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ

**81. Savol: Asr surasini o'qib bering?**

**Javob:**

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

وَالْعَصْرِ ① إِنَّ الْإِنْسَانَ لَفِي خُسْرٍ ② إِلَّا الَّذِينَ ءَامَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ وَتَوَّصُوا بِالحَقِّ وَتَوَّصُوا بِالصَّبْرِ ③

**82. Savol: Eng yaxshi va afzal xulq qaysi?**

**Javob: Rostgo'ylik.**

**83. Savol: Eng yomon va qabih xulq qaysi?**

**Javob: Yolg'onchilik.**

**84. Savol: O'ziga yaxshi ko'rgan narsani o'zgalarga ham yaxshi ko'rish to'g'risidagi hadisni aytib bering!**

**Javob:** Payg'ambarimiz sollalohu alayhi va sallam dedilar:

لَا يُؤْمِنُ أَحَدُكُمْ حَتَّىٰ يُحِبَّ لِأَخِيهِ مَا يُحِبُّ لِنَفْسِهِ

“Sizlarning biringiz o'ziga yaxshi ko'rgan narsani mo'min birodariga ham yaxshi ko'rmaguncha mo'min bo'lmaydi” (Buxoriy (13) va Muslim (45) rivoyati).

#### **85. Savol: Dushmaning kim?**

**Javob:** Mal'un shaytondir.

**86. Savol: Qaysi paytlarda “Auvzu billah”ni aytasiz (ya'ni Alloh taologa shaytondan panoh so'rab iltijo qilasiz)?**

**Javob:** Qur'on o'qishdan avval, xalo (hojatxona)ga kirishdan avval, g'azab kelganda, shayton vasvasa qilgan payt va eshakning ovozini eshitganda.

**87. Savol: Qalb kasalliklarining eng xatarlisi qaysi?**

**Javob: Munofiqlik.**

**88. Savol: Munofiqlarga eng og'ir namoz qaysi?**

**Javob: Bomdod va Xufton namozlari.**

**89. Savol: “Munofiqlarning alomati uchta...” hadisining davomini aytib bering!**

**Javob: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

آيَةُ الْمُنَافِقِ ثَلَاثٌ إِذَا حَدَّثَ كَذَبَ ، وَإِذَا وَعَدَ أَخْلَفَ ،  
وَإِذَا أَوْثَمِنَ خَانَ ،

**“Munofiqlarning alomati uchta: gapirsa yolg'on gapiradi, va`da qilsa xilof qiladi,**

amonat qo'yilsa xiyonat qiladi" (Buxoriy (33) va Muslim (59) rivoyati).

**90. Savol: Insonning o'zi uchun eng xatarli narsasi nima?**

**Javob: Tilidir.**

**91. "Kishi Islomining go'zalligidan..." hadisining davomi nima?**

**Javob:**

مِنْ حُسْنِ إِسْلَامِ الْمَرْءِ تَرْكُهُ مَا لَا يَغْنِيهِ

**"Kishi Islomining go'zalligidan behuda so'zni tark etishidir" (Termiziy (2317) va Ibn Moja (3976) rivoyati).**



**92. Savol: Qaysi soʻz Alloh taologa eng suyumlidir?**

**Javob: Subhanalloh valhamdu lillah va la ilaha illalloh.**

**93. Savol: Jannatning xazinasini nima?**

**Javob: La havla va la quvvata illa billah.**

**94. Savol: “Tilga yengil ikki kalima...” hadisining davomini ayting!**

**Javob: Paygʻambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

كَلِمَتَانِ خَفِيفَتَانِ عَلَى اللِّسَانِ ثَقِيلَتَانِ فِي الْمِيزَانِ  
حَبِيبَتَانِ إِلَى الرَّحْمَنِ : سُبْحَانَ اللَّهِ وَبِحَمْدِهِ سُبْحَانَ اللَّهِ  
الْعَظِيمِ

**“Tilga yengil, tarozuda ogʻir, Rahmon taologa suyumli ikki kalima: Subhanallohi va**

bihamdihi, Subhanallohil Aziymdir” (Buxoriy (7563) va Muslim (6294) rivoyati).

## 95. Savol: Sayyidul istig’forni aytib bering!

Javob:

اللَّهُمَّ أَنْتَ رَبِّي لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ، خَلَقْتَنِي وَأَنَا  
عَبْدُكَ، وَأَنَا عَلَى عَهْدِكَ وَوَعْدِكَ مَا اسْتَطَعْتُ، أَعُوذُ بِكَ  
مِنْ شَرِّ مَا صَنَعْتَ، أَبُوءُ لَكَ بِنِعْمَتِكَ عَلَيَّ، وَأَبُوءُ  
بِدُنْبِي فَاعْفِرْ لِي فَإِنَّهُ لَا يَغْفِرُ الذُّنُوبَ إِلَّا أَنْتَ

## 96. Savol: Uxlashdan avval nima deysiz?

Javob:

بِسْمِكَ اللَّهُمَّ أَمُوتُ وَأَحْيَا

Ya`ni: Ey Allohim, Sening isming bilan o`laman va tirilaman.

**97. Savol: Uyqudan uyg'ongandan so'ng nima deysiz?**

**Javob:**

الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَحْيَانَا بَعْدَ مَا أَمَاتَنَا وَإِلَيْهِ النُّشُورُ

**Ya`ni: Bizni o'ldirgandan so'ngra qayta tiriltirgan Allohga hamdlar bo'lsin, bizning oxirida qaytar yerimiz U Zotning huzurigadir.**

**98. Savol: Islom salomi qanday?**

**Javob: Assalamu alaykum va rohmattullohi va barokatuh.**

**99. Savol: Musulmon kishi qaysi qo'li bilan yeydi va ichadi?**

**Javob: O'ng qo'li bilan.**

**100. Savol: Siz qaysi paytlar “bismillah” deysiz?**

**Javob: Yeyish va ichishdan avval, xaloga kirishdan oldin, masjidga kirishdan oldin, masjiddan chiqishda, kiyim kiyish va yechishdan avval.**

**101. Savol: Qachon “alhamdulillah” deysiz?**

**Javob: Yeb-ichgandan so’ng, aksa urgandan so’ng, har bir ne`matdan so’ng va har bir holda.**

**102. Savol: Bir mo’min aksa urib «alhamdulillah» desa nima deb javob qaytarasiz?**

**Javob: Yarhamukalloh.**

**103. Savol: Siz aksa urib «Alhamdulillah» deganingizda «Yarhamakulloh» degan kishiga nima deb javob berasiz?**

**Javob: Yahdiykomulloh va yuslihu balakum.**

**104. Savol: “Kimga Alloh taolo yaxshilikni iroda etsa...” hadisining davomi nima?**

**Javob: Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallam dedilar:**

**مَنْ يُرِدِ اللهُ بِهِ خَيْرًا يُفَقِّهْهُ فِي الدِّينِ**

**“Kimga Alloh taolo yaxshilikni iroda etsa, uni Islom shariatini yaxshi biladigan qilib qo’yadi” (Buxoriy (7312) va Muslim (1037) rivoyati).**

**105. Savol: Alloh taolo uchun eng yaxshi ko'rilgan joy qaer?**

**Javob: Masjidlar.**

**106. Savol: Haftaning afzal kuni qaysi?**

**Javob: Jum`a kuni.**

**107. Savol: Yilning afzal kuni qaysi?**

**Javob: Arafa kuni.**

**108. Savol: Yil kechalarning afzali qaysi?**

**Javob: Qadr kechasi.**

**109. Savol: Oylarning afzali qaysi?**

**Javob: Ramazon oyi.**

**110. Savol: Islomda bayram (hayit) kunlari qaysilar?**

**Javob: Ramazon va Qurbon hayiti.**

**111. Savol: Xulafoi Roshidin (to'g'ri yo'l uzra bo'lgan xalifalar) kimlar?**

**Javob: Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (Ulardan Alloh rozi bo'lsin).**

Tamom. Alloh taologa hamdlar bo'lsin.

Payg'ambarimizga va u zotning ahli oilalari va hamma sahobalariga salavot va salomlar bo'lsin!

Biz mo'minlarga Robbimiz solih amal va foydali ilm ne'matini bersin amin!